



MILLIY QADRIYATLARNING ADABIY-BADIIY ASARLARDA TUTGAN AHAMIYATI (ISAJON SULTON IJODI MISOLIDA)

Maxsutbaeva Nigora Rashid qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika Instituti Turkiy tillar
fakulteti O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11452852>

ARTICLE INFO

Received: 27th April 2024

Accepted: 28th May 2024

Published: 31st May 2024

KEYWORDS

*Pedagogik innovatsiya, badiiy
asarlarda psixologizm,
kulminatsion jarayon, milliy
mentalitet*

ABSTRACT

Ushbu maqolada milliy qadriyatlarning adabiyot badiiy asarlari tutgan ahamiyati yuzasidan mulohazalar mavjud. Isajon Sulton asarlarining milliy qadriyatlar asosida yaratilishi ta'lim jarayonidagi islohotlar va xalqchillik bilan aloqadorlikni yuzaga keltiradi. Darsni tashkil etishda ko'rsatmalilik tamoyillari, milliy qadriyatlarni ifodalab beradigan oila tasvirlari, to'y va shu kabi tasvirlardan foydalanilgan. o'quvchi ma'naviyatning rivojlantirilishida va fikrlash doirasining rivojlantirilishi bu psixologizm va adabiyot bilan aloqador tarzda yuzaga keltiriladi. Mana shunday holatlarni unutmagan holatda o'zbek milliy qadriyatlarga asoslangan pedagogik ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish kabi tushuncha va izohlar o'z ifodasini topgan.

Isojon Sulton asarlarida xronotop o'ziga xosdir ya'ni adabiy badiiy asarlarining zamon va makonda bo'layotgan voqeliklari bilan aytganda xronotop asosida yuzlashadi. Hikoyalarda obrazlarning tavsiflanish tizimi ham farqlidir. Isojon Sulton asarlarida obrazlarga nisbatan xatti-harakatiga va jamiyat voqeliklari ko'p qalamga olinadi. Bunda ommaviy madaniyat, ongsiz xalq, mehnatkash xalq tasvirlari yetakchi o'rinni egallagandan so'ng ular ma'lum bir obrazlardan ko'ra ustunlik darajasiga ko'ra qalamga olinadi.

Konfliktlarning ifodalanishi ham samimiylikka yugurgan tarzda milliy qadriyatlarni unutmagan holda yuzaga keladi. Qishloq va shahar xronologiyasi adabiy asarlarda sezilib turadi. Aksariyat hikoyalarda ikkita yo'nalish asosida g'oyalar singdirladi. Isojon Sulton asarlari ko'plab voqeliklari qishloq hayotida ro'y beradi. Chunki qishloq hayotidagi boy detallar asarining haqiqatdan ham ommabop bo'lishidan katta rol o'ynaydi. "Munajat" qissasi va "Oydinbuloq" hikoyalari buning yaqqol misolidir. "Ta'lim kechimida mana shu tamoyillarga rioya qilinishi shart. Ammo predmetlarning mazmuniga, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, ko'rsatmali qo'llanmalar mavjudligiga bog'liq holda tamoyillarning nisbati hamda mazmuni ma'lum darajada o'zgaradi. Masalan, ko'rsatmalilik tamoyili tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida tajribalarni namoyish etish bo'sa, adabiyot o'qitishda grammatik jadvallarni ko'rsatish, darstaxtaga yozish, chizmalarchizish va hokazolardan iborat bo'ladi. Lekin har qanday predmetni o'qitishda jonli mushohada, ya'ni narsa va hodisalarni muayyan idrok etish, fikrlash tamoyillariga amal qilish, nazariy xulosalar tushunish va bilish, ularni tajribada, hayotda qo'llay olish zarur".[1] Jahon adabiyotida adabiyotga nisbatan qandaydir ma'noda qurol vositasida ham qarab kelinadi. Mashhur psixolog Karl Gustovning ma'lumot berishicha,

adabiyotni uch qatlamga singdirish mumkin ularning qilayotgan ishlari hayotga tadbiiq etilishiga ko'ra, ong idroki masalasi va shaxsiy ong masalasiga ommaviy ong ostiga xos bo'lgan adabiy asarlar ko'pchilikka uyg'un bo'lgan holatda yozilsa anglash aniq bo'ladi. Shu sababdan idrok va ong osti tafakkurlari esa o'qituvchi tomonidan berilayotgan bilim asosida rivojlanib, boyib boradi. Poetik asarlarini tahlil qilish mana shunday bosqichchilik asosida yuzaga kelishi lozim. Isojon Sulton asarlarida kecha bugun va kelajak kabi tamoyillarning guvohi bo'lishimiz mumkin. Asarlarida miflarga tayangan holatda yaratilgan voqeliklar kechadan xabar bersa bugungi kundagi voqelik XXI asr nuqtayi nazaridan qalamga olinadi va kelajak haqida qarashlar asal voqeliklarga qatnashyotgan ishtirokchilarining taqdiri misolida qalamga olinadi. Mustaqillik yillaridagi nasriy asarlarning yaratish texnikasi va texnologiyasi bugungi kunga qadar rivojlanib kelmoqda.

“O'quvchi ma'naviyatining sog'lomlashuvi esa: «...o'z manfaatini o'zgalar manfaatiga qarshi qo'ymaslik, o'zinikini afzal bilmaslikdir. Boshqalarning ham o'zi singari inson ekanini his qilish va ularga deal qilmagan, halal bermagan holda birgalikda yashay bilish san'atidir. Sog'lom ma'naviyat - o'zni yengmoq, o'zning istagu mayillarini jilovlay bilmoq, ayni vaqtda o'zlikni tanimoqdir. Sog'lom ma'naviyat xudbinlikni yenga bilmoqdir, makonda turib makoniy manfaatlardan, zamonda yashab zamoniy tuslanaverishlardan balandroq tura olmoq demakdir».[2] Voqealar rivojiga to'xtalib o'tsak, otaning kasallangan holatini yozuvchi borliqdagi hamma narsa orqali tassvirlashga harakat qilgan, ammo bunda eng asosiy vosita Bo'ynoqning idishidagi suv edi. Nega aynan suvni vosita sifatida qo'llanganligiga to'xtalsak, chunki suv – hayotiylik ramzidir. Isojon Sulton asarida yana e'tiborli jihatlardan biri shuki, unda voqealar rivoji umuman boshqacha tus oladi. Ya'ni asar kompozitsiyasida tub burilishlar sodir bo'ladi. Masalan: Eng kichkina o'g'il tandirdan turib otasini chaqirgandi, endi esa g'uvillab esayotgan shamol tolbarglarning to'kilgan saslari ila o'g'lining nidosini ham olib kelmoqda. Bilasizmi, qachonki inson bor narsasini yo'qotgandagina uning qadriga yetadi. Jumladan, bu asarda ham mana shu holatlar o'zining yorqin ifodasini topgan. Go'yoki ota bunda tirkchilik vaji va ko'proq pul topish maqsadida olislarga ketdi, ammo xalqimizda shunday ajoyib bir maqol mavjud “O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l” degan.

Isajon Sulton asarlarida hikoyachi va muallif tili asosidagi amalga oshirilgan voqeliklarda tasvir uslubi quyidagichadir: botayotgan quyosh, chang ko'chalar yoki qishloq hayotidagi odatiy ishlar bosh planga ko'chirilgandan so'ng asardagi voqealilar bolalar tilidan yoki hayvonlar vositasida beriladi. Shu ma'noda asardagi singdirilgan g'oya qishloq hayotiga oid ma'lumotlar va fikrlash doirasiga oid. Bular o'zbek adabiyotidagi ko'plab asarlarda bo'lgani kabi hikoyalardagi syujet voqealiligiga tush tasviri bilan bevosita aloqadordir. Tush tasviri ko'plab asarlarida keltiriladi. Inson hayotida ham uning xatti-harakatlariga nisbatan ta'sir o'tkazib yuradi tushga ishonish diniy va dunyoviy qarashlar asosida ma'lum bir jihatlari yuzaga keltirad. Shunga ko'ra sabab va natija kabi tamoyillar asosida asarlarini tahlil qilishga yo'l ochiladi. Voqelikda konfliktning yuzaga kelishiga bo'lgan sabab oiladagi munosabat ta'lim tarbiya jarayonlari bilan bog'liqdir. Ayni masalalar “do'st” va “qiyomat” kabi hikoyalarda o'rta chiqadi. Asarda zamonaviy dunyoqarash va milliy qadriyatlarining uyg'unlanishiga sabab bo'lgan tushunchalar o'z ifodasini topadi. “Psixologlarning ta'biricha, fikrlash, ya'ni tafakkur - odam miyasida sodir bo'ladigan jarayon. Sezgi organlari yetarli bo'lmay qoladigan o'rinlarda odam va olamning xususiyatlari tafakkur orqali o'rganiladi. Tafakkur - aqliy faoliyatning ongli xatti-harakatlarning majmui. U tevarak-atrof, voqelik hamda ijtimoiy muhitni bilish quroli, inson faoliyatini to'g'ri va samarali amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Kishi fikrlash jarayonida o'zi ko'rgan, idrok qilgan, sezgan, tasavur etgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, aniqligi, haqiqiyliigi hamda ularning borliqqa munosabatini aniqlaydi”.[3]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek pedagogik ensiklopedik so'zligi. (Q. Yo'ldosh, U. Dolimov, Q. Husanboyeva, A. Sulaymonov, M. Yo'ldosheva, O. Safarov.) — T.: Chashma print, 2014. 446-bet.
2. Yo'ldoshev Q. O'zlikni tanish — Allohni tanishdir.7/ «Tafakkur» jumali, 1996 yil 4-son. 22 - 27-betlar.
3. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi]— T.: «O'qituvchi», 1990; Богоявлинский Д. Н., Менчинская Н. А. Психология усвоения знаний в школе. - Москва: АПН РСФСР 1959; Богоявлинский Д. Н. Развитие самостоятельности мышления школьников как основа активных методов обучения. Сб. «Пути повышения качества усвоения знаний в начальных классах». - Москва, АПН РСФСР, 1962; Психология мышления. /Под ред. Матюшкина А. М. - Москва: «Прогресс», 1965; Тихомиров О. К. Психология мышления. - Москва: МГУ, 1984.

